ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Zokirova Sadoqatxon Suhrobjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti,

Elektron tijorat yo‘nalishi, BET-76/23 guruh talabasi

ORCID: 0009-0002-0877-2147

E-mail: zokirovasadoqat9@gmail.com

Tel: +998 90 845 37 31

TA’MINOT ZANJIRINI STRATEGIK REJALASHTIRISHNI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’minot zanjirini strategik rejalashtirishning korxona faoliyati hamda milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ta’minot zanjirining asosiy bosqichlari — talabni prognozlash, resurslarni rejalashtirish, zaxiralarni boshqarish va yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik jarayonlari yoritib berilgan. Strategik yondashuvning ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlash va xarajatlarni optimallashtirishdagi roli asoslab ko‘rsatilgan. Shuningdek, sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar hamda amaliy mexanizmlar tahlil etilgan. Jadval va tahliliy ma’lumotlar asosida strategik rejalashtirishning mahsulot tannarxini kamaytirish, yetkazib berish samaradorligini oshirish va risklarni boshqarishdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari ta’minot zanjirini puxta rejalashtirish iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: ta’minot zanjiri, strategik rejalashtirish, ta’minot zanjiri boshqaruvi, talabni prognozlash, resurslarni rejalashtirish, zaxiralarni boshqarish, logistika, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В статье проведён научный анализ значения стратегического планирования цепей поставок в деятельности предприятий и развитии национальной экономики. В исследовании рассмотрены основные этапы цепи поставок, включая прогнозирование спроса, планирование ресурсов, управление запасами и взаимодействие с поставщиками. Обоснована роль стратегического подхода в обеспечении непрерывности производства и оптимизации затрат. Также проанализированы нормативно-правовые основы и практические механизмы регулирования данной сферы. На основе табличных и аналитических данных раскрыто значение стратегического планирования в снижении себестоимости продукции, повышении эффективности поставок и управлении рисками. Результаты исследования подтверждают, что комплексное планирование цепей поставок играет важную роль в обеспечении экономической устойчивости и конкурентоспособности.

Ключевые слова: цепь поставок, стратегическое планирование, управление цепями поставок, прогнозирование спроса, планирование ресурсов, управление запасами, логистика, конкурентоспособность.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the importance of strategic supply chain planning in enterprise performance and national economic development. The study examines the main stages of the supply chain, including demand forecasting, resource planning, inventory management, and cooperation with suppliers. The role of the strategic approach in ensuring production continuity and optimizing costs is substantiated. In addition, the regulatory framework and practical mechanisms governing this field are analyzed. Based on tabular and analytical data, the significance of strategic planning in reducing product costs, improving delivery efficiency, and managing risks is demonstrated. The results of the study confirm that effective supply chain planning plays a crucial role in ensuring economic stability and competitiveness.

Keywords: supply chain, strategic planning, supply chain management, demand forecasting, resource planning, inventory management, logistics, competitiveness.

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ta’minot zanjirini samarali tashkil etish va uni uzoq muddatli maqsadlar asosida boshqarish korxonalar barqaror rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining uzluksizligi xomashyo, materiallar hamda tayyor mahsulotlarning o‘z vaqtida yetkazib berilishiga bevosita bog‘liqdir. Shu bois, ta’minot zanjirini strategik rejalashtirish nafaqat ichki jarayonlarni muvofiqlashtirish, balki xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va bozor talabiga moslashishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida logistika infratuzilmasini tartibga solish va uni izchil rivojlantirish masalalari normativ-huquqiy hujjatlar orqali tizimli ravishda mustahkamlab borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025–yil 27–yanvardagi PQ–28–sonli “Transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida[1] transport-logistika hamda ta’minot tizimlarini modernizatsiya qilish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Mazkur holat ta’minot zanjirini strategik rejalashtirish masalasini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etishning dolzarbligini yanada oshiradi. Shu jihatdan, ta’minot zanjirini strategik rejalashtirishning ahamiyatini har tomonlama o‘rganish nazariy va amaliy nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta’minot zanjirini strategik rejalashtirishning ahamiyati to‘g‘risida mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng va tizimli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, S. Tursunov, N. Mirzaev va R. Yusupovning ilmiy ishlarida ta’minot zanjirini strategik rejalashtirish orqali korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlash hamda xarajatlarni optimallashtirishga erishish masalalari ilmiy asosda tahlil qilingan. Ushbu mualliflar ta’minot zanjirida strategik rejalashtirishni rivojlantirishda davlat siyosati va normativ-huquqiy bazaning muhim o‘rnini alohida ta’kidlab, O‘zbekiston sharoitida mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan amaliy yondashuvlarni taklif etadilar.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda esa ta’minot zanjirida strategik rejalashtirish masalalari global miqyosda chuqur va kompleks tarzda o‘rganilgan. Xususan, Sunil Chopra, Peter Meindl, Donald Bowersox va Paul R. Murphy asarlarida strategik rejalashtirishning samaradorligi, infratuzilmaning raqobatbardoshlikka ta’siri hamda zamonaviy logistika strategiyalarini ishlab

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.01.2025 yildagi PQ-28-son https://lex.uz/uz/docs/-7342148.

chiqishdagi ahamiyati nazariy va amaliy jihatlarda yoritib berilgan. Mazkur mualliflarning ilmiy qarashlari milliy iqtisodiyotda ta’minot zanjirini strategik rejalashtirish jarayonini takomillashtirish va uni samarali boshqarish uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ta’minot zanjirida strategik rejalashtirishning samaradorligini chuqur va tizimli tahlil qilish maqsadida umumilmiy hamda maxsus tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez metodlari asosida ta’minot zanjirining asosiy komponentlari hamda ularning korxona va milliy iqtisodiyot jarayonlariga ta’siri atroflicha o‘rganildi. Induksiya va deduksiya usullari yordamida strategik rejalashtirish jarayonining umumiy qonuniyatlari aniqlanib, alohida omillarning samaradorlikka ta’siri ilmiy asosda baholandi.


Shuningdek, taqqoslash metodi orqali milliy va xorijiy tajribalar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida statistik ma’lumotlarni qayta ishlash, umumlashtirish va tizimlashtirishda iqtisodiy-statistik tahlil metodidan samarali foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, ta’minot zanjirini tartibga soluvchi qonunlar va qarorlar tahlili asosida huquqiy mexanizmlarning strategik rejalashtirish samaradorligiga ta’siri baholandi. Olingan natijalar mantiqiy xulosalar chiqarish hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’minot zanjirini strategik rejalashtirish korxonaning uzoq muddatli maqsadlariga muvofiq ravishda xarid, ishlab chiqarish, saqlash va yetkazib berish jarayonlarini tizimli boshqarishga xizmat qiladi. Strategik yondashuv natijasida umumiy xarajatlar qisqaradi hamda transport xarajatlari optimallashtiriladi. Xususan, “Just in Time” modeli orqali ombor zaxiralari minimal darajaga tushiriladi, bu esa korxonada mablag‘lar aylanishining tezlashuviga xizmat qiladi. To‘g‘ri tanlangan strategiya pul oqimlarining barqarorligini ta’minlab, kapital aylanish tezligini oshirishga imkon yaratadi (1-grafika).

1-grafika

Strategik va nostrategik ta’minot zanjiri boshqaruvi sharoitida daromad indeksining o‘zgarishi[2]



Grafik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, korxonada ta’minot zanjirini strategik rejalashtirish orqali yillik ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilanadi. Ushbu holat korxonaning barqaror va izchil o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi. Strategik rejalashtirish joriy etilmagan sharoitda esa xarajatlarning oshishi va resurslardan samarasiz foydalanish ehtimoli kuchayadi. Natijada korxonaning moliyaviy natijalari pasayishi va bozor raqobatbardoshligini saqlab qolish imkoniyatlari cheklanishi mumkin.

Ta’minot zanjirida “Just in Time” (JIT) modeli eng samarali tizimlardan biri sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu model ishlab chiqarish jarayonida xomashyo va materiallarni faqat zarur bo‘lgan vaqtda yetkazib berishga asoslanadi, buning natijasida ortiqcha zaxiralarni saqlashga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi va ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Quyidagi jadvalda “Just in Time” modeli tizimli va taqqoslama shaklda aks ettirilgan bo‘lib, bu uning samaradorligi hamda amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini yanada aniqroq ko‘rsatib beradi (1-jadval).

1-jadval

[2] Muallif tomonidan yaratildi.

Ta’minot zanjirida Just In Time (JIT) tizimining O‘zbekiston tajribasi[3]

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston tajribasi
Korxonalar soni	250 dan ortiq yirik korxonalarda joriy etilgan
Zaxira xarajatlarining kamayishi	20–25%
Ishlab chiqarish samaradorligi	30% ga oshgan
Amaliy misollar	Prezident qarori: “Mahalliy korxonalar faoliyatida zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarini tatbiq etish choralarini ko‘rish” (2021-yil)

Ushbu jadval O‘zbekiston Respublikasidagi yirik korxonalarda “Just in Time” (JIT) tizimining amaliy qo‘llanilishini aks ettiradi. Keltirilgan ko‘rsatkichlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ortiqcha zaxiralarni qisqartirish hamda umumiy iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan. Amaliy misol sifatida keltirilgan Prezident qarori mamlakat miqyosida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va zamonaviy ta’minot tizimlarini joriy etish bo‘yicha ustuvor chora-tadbirlarni belgilab beradi. Jadvaldagi ma’lumotlar O‘zbekiston korxonalarida JIT tizimini tatbiq etish samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’minot zanjirini strategik rejalashtirish milliy iqtisodiyotning barqaror va izchil rivojlanishida muhim strategik ahamiyatga ega. Samarali rejalashtirilgan ta’minot zanjiri ishlab chiqarish va savdo jarayonlarining uzluksizligini ta’minlab, mahsulot tannarxini kamaytirish, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar strategik rejalashtirish ishlab chiqarish jarayonlarida resurslar va operatsiyalarni optimallashtirish orqali milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirish, hududiy rivojlanishni jadallashtirish, bandlik darajasini yaxshilash va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Shu bois, ta’minot zanjirini strategik rejalashtirish milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Milliy ta’minot zanjirining samaradorligini yanada oshirish maqsadida bir qator amaliy chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish muhimdir. Xususan, korxonalar ERP, SCM va boshqa raqamli platformalar yordamida talabni prognozlash, inventarni nazorat qilish hamda transport-logistika jarayonlarini optimallashtirishi zarur. Ma’lumotlarga asoslangan (data-driven) yondashuv xarajatlarni qisqartirish, yetkazib berish tezligini oshirish va barqaror raqobat ustunligini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-sonli “Transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-7342148.
2. Vohidov A.X. Logistika va transport tizimlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

[3] Muallif tomonidan yaratildi.

3. Mustafakulov Sh.I. Milliy iqtisodiyotda logistika infratuzilmasini rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Bowersox D.J., Closs D.J., Cooper M.B. Supply Chain Logistics Management. – New York: McGraw-Hill, 2019.
5. Christopher M. Logistics and Supply Chain Management. – London: Pearson Education, 2016.
6. Murphy P.R., Knemeyer A.M. Contemporary Logistics. – Boston: Pearson, 2018.